



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajiboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

25. Организация Объединённых Наций. E-Government Development Index Report 2022–2024. UN DESA. Нью-Йорк, 2024.
26. Asian Development Bank. CAREC Digital Strategy 2030. Manila: ADB, 2021.
27. World Bank. Digital CASA Project Overview. Washington, D.C.: World Bank Group, 2023.
28. ITU. Global Cybersecurity Index 2023. Geneva: International Telecommunication Union, 2023.
29. UNESCO. AI Readiness Index and National AI Strategies Survey 2023. Paris: UNESCO, 2023.
30. OECD. Digital Economy Outlook 2022. Paris: OECD Publishing, 2022.
31. World Bank. Central Asia Digital Development Report. Washington, D.C., 2023.
32. UNESCAP. Digital and Sustainable Trade Facilitation Report. Bangkok, 2022.
33. WTO. E-commerce and Digital Trade Annual Report 2023. Geneva: WTO Secretariat, 2023.

**UDK:334**

**KLASTERLARNI BOSHQARISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA  
RESURSLARDAN OPTIMAL FOYDALANISH**

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КЛАСТЕРАМИ И  
ОПТИМАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РЕСУРСОВ**

**INCREASING THE EFFICIENCY OF CLUSTER MANAGEMENT AND OPTIMAL USE  
OF RESOURCES**

**Xalmatjanova G.D.** Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, i.f.n.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish hamda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan optimal foydalanish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida klaster tushunchasining mohiyati, boshqaruv mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda resurslardan foydalanishdagi mavjud muammolar tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, klasterlarni samarali boshqarish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta‘minlash mumkin. Maqolada klaster boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** klaster, boshqaruv samaradorligi, resurslar, optimallashtirish, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish.

В данной статье научно исследуются вопросы повышения эффективности кластерного управления и оптимального использования материальных, финансовых и трудовых ресурсов. В ходе исследования проанализированы сущность концепции кластера, специфика механизмов управления и существующие проблемы использования ресурсов. Полученные результаты показывают, что благодаря эффективному управлению кластерами возможно повышение эффективности производства, снижение издержек и обеспечение конкурентоспособности. В статье разработаны научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию кластерного управления.

**Ключевые слова:** кластер, эффективность управления, ресурсы, оптимизация, инновации, экономическое развитие.

This article scientifically studies the issues of improving the efficiency of cluster management and the optimal use of material, financial and labor resources. In the course of the research, the essence of the concept of a cluster, the specific features of management mechanisms and existing problems in the use of resources were analyzed. The results obtained show that through effective management of clusters, it is possible to increase production efficiency, reduce costs and ensure

competitiveness. The article develops scientific and practical proposals and recommendations for improving cluster management.

**Keywords:** cluster, management efficiency, resources, optimization, innovation, economic development.

Jahon mamlakatlarida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil qilish asosida hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda klasterlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining integratsiyasi hamda yuqori texnologiyalarni jalb qilish hisobiga iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning barqaror rivojlanishi ta‘minlanmoqda. Hozirda klasterlar “...rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining 50 foizidan ortig‘ini qamrab olgan bo‘lib, AQSHda yalpi ichki mahsulotning 60 foizi, Yevropa Ittifoqida band aholining 40 foizi ular hissasiga to‘g‘ri keladi” 1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va ularni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish klaster usulidan keng foydalanishni taqozo qilmoqda.

Jahonda iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashning muhim omili sifatida klaster siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan, klasterlarning mintaqalarda iqtisodiy o‘rinish va tarmoqlar rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganish, tarmoqlarning klasterlarga transformatsiyalashuvi jarayonining xususiyatlarini tadqiq etish, hududiy klasterlar faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, klasterlar vositasida barqaror, yashil va raqamlashtirilgan sanoat tizimlarini barpo etishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Klaster konsepsiyasining hali shakllanish bosqichida ekanligidan kelib chiqib, ular faoliyatida sinergetika samaradorlikni oshirish hamda hududlar iqtisodiyoti rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etish yo‘llari va usullarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan izlanishlarni kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mamlakatlarning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardosh bo‘lishi klaster yondashuvining keng qo‘llanilishi bilan bevosita bog‘liq. Klasterlar iqtisodiyotning muhim subyektlari bo‘lib, ular korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta‘lim tizimi va xizmat ko‘rsatish sohalarini o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantiradi.

Klaster tizimi resurslardan birgalikda foydalanish, innovatsiyalarni tezkor joriy etish va ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirish imkonini beradi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, klasterlarning kutilgan samaradorlikka erishishi ko‘p hollarda boshqaruv tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va resurslardan noo‘rin foydalanish bilan cheklanmoqda.

Shu bois, klasterlarni boshqarish samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish mexanizmlarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi klaster boshqaruvining samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va resurslardan oqilona foydalanish yo‘llarini asoslab berishdan iborat.

Klaster tushunchasi va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda klasterlar hududiy rivojlanish, raqobatbardoshlik va innovatsion faollikni oshirishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Yevropa va OECD tadqiqotlarida klasterlar innovatsion rivojlanishning tayanch nuqtasi sifatida baholanadi. OECD hisobotlarida klasterlar doirasida resurslardan birgalikda foydalanish, bilim va texnologiyalar almashinuvi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshirishi ko‘rsatib berilgan (OECD, 2019).

MDH va Markaziy Osiyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda klaster tizimining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni yoritilgan. Jumladan, A. Karimov va B.Xolmatov klasterlarni boshqarish jarayonida resurslarni rejalashtirish va muvofiqlashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligini asosiy muammo sifatida ko‘rsatadi. Ularning fikricha, klaster samaradorligini oshirish uchun strategik boshqaruv va innovatsion yondashuvlar zarur.

O‘zbekiston olimlari tadqiqotlarida klaster tizimi, ayniqsa, agroklastar va sanoat klasterlari misolida o‘rganilgan. Ilmiy ishlar shuni ko‘rsatadiki, klasterlarda resurslardan foydalanish ko‘pincha

an’anaviy boshqaruv usullari bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar va klaster boshqaruvi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotchilar klasterlarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish resurslar monitoringini kuchaytirishi, boshqaruv qarorlarini tezlashtirishi va umumiy samaradorlikni oshirishini ta’kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, klasterlarni boshqarish samaradorligi va resurslardan optimal foydalanish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda klaster boshqaruvining kompleks modeli va resurslarni integratsiyalashgan holda boshqarish mexanizmlariga yetarli e’tibor berilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan:

- nazariy tahlil – klaster tushunchasi va boshqaruv mexanizmlarini o‘rganishda;
- taqqoslash usuli – turli klaster modellarini solishtirishda;
- tizimli yondashuv – klasterlarni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida baholashda;
- mantiqiy umumlashtirish – ilmiy xulosalar chiqarishda;
- ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili – mavjud tajribani o‘rganishda.

Mazkur usullar klaster faoliyatini boshqarish va resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

Klasterlarni boshqarish samaradorligi — bu klaster a’zolarining mavjud resurslarini, ishlab chiqarish jarayonlarini va innovatsion faoliyatini maksimal darajada uyg‘unlashtirish qobiliyatidir. Samarali boshqaruv nafaqat ishlab chiqarish natijalarini oshiradi, balki klasterning iqtisodiy barqarorligini, raqobatbardoshligini va innovatsion salohiyatini mustahkamlaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, klaster samaradorligi ularning boshqaruv tizimi va resurslarni boshqarish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq

Klasterlarni boshqarish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari bir necha komponentdan iborat. Birinchisi — strategik rejalashtirish, ya’ni klasterning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini aniqlash va har bir ishtirokchi korxonaning vazifalari hamda resurslarini moslashtirishdir. Ikkinchisi — operatsion boshqaruv, u ishlab chiqarish jarayonlari, resurslar sarfi va logistika tizimini real vaqt rejimida nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Uchinchisi — innovatsion boshqaruv, ya’ni ilmiy-tadqiqot ishlari, yangi texnologiyalarni joriy etish va tajriba almashuvini rag‘batlantirish. Nihoyat, resurslarni integratsiyalashgan boshqarish moddiy, moliyaviy, mehnat va axborot resurslarini birlashtirib, ularni samarali taqsimlashga imkon beradi.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, klasterlarda boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat. Birinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish resurslardan foydalanishni optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. ERP, CRM va mahsulot zanjiri boshqaruvi tizimlari orqali klasterning har bir a’zosi ishlab chiqarish jarayonlari, resurslar sarfi va moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida kuzatishi mumkin. Ikkinchidan, markazlashgan boshqaruv mexanizmini tashkil etish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu markaz resurslarni taqsimlash, investitsiyalarni yo‘naltirish va strategik qarorlarni qabul qilish vazifasini bajaradi. Uchinchidan, hamkorlik va axborot almashuvini samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Klaster a’zolari o‘rtasida bilim, texnologiya va bozor ma’lumotlarini tezkor almashish innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi va ishlab chiqarish xatoliklarini kamaytiradi. To‘rtinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish boshqaruv samaradorligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Menejment va texnologik malakalarni oshirish orqali boshqaruv jarayoni yanada samarali bo‘ladi, xodimlarni qayta tayyorlash va seminarlar o‘tkazish orqali esa innovatsion tajriba almashuvi rag‘batlantiriladi.

Klaster boshqaruv samaradorligini baholash uchun bir qator indikatorlardan foydalanish mumkin. Bunga hosildorlik va mahsulot hajmi, xarajatlar samaradorligi, foyda va rentabellik, innovatsion faoliyat ko‘rsatkichi, shuningdek, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasi kiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi usullarni kompleks joriy etish orqali klasterlarning samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Shu bilan birga, amaliy tavsiyalar quyidagicha: strategik rejalashtirishni rivojlantirish, resurslarni real vaqt rejimida monitoring qilish, axborot va bilim almashuvi platformalarini joriy etish, menejment va kadrlar salohiyatini oshirish hamda raqamli innovatsiyalarni tatbiq etish. Bu choralar klasterning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va innovatsion rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Klasterlarni boshqarish samaradorligini oshirish resurslardan optimal foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Raqamli boshqaruv, markazlashgan koordinatsiya va kadrlar salohiyatini oshirish klasterlarning raqobatbardosh va iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat yuritishiga imkon beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, klasterlarni boshqarish jarayonida quyidagi muammolar mavjud:

- resurslarni rejalashtirish va taqsimlashning yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi;
- klaster ishtirokchilari o‘rtasida axborot almashuvi sustligi;
- boshqaruv qarorlarining kechikib qabul qilinishi;
- innovatsion faoliyatga yetarli e‘tibor berilmasligi.

Mazkur muammolar resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi va klasterning umumiy iqtisodiy natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Resurslardan foydalanish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, klasterlarda resurslardan optimal foydalanish quyidagi omillarga bog‘liq:

- boshqaruv tizimining markazlashuv darajasi;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- kadrlar salohiyati va malaka darajasi;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu omillar uyg‘unlashgan holda rivojlangan taqdirda klaster samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Agroklaster misolida o‘tkazilgan raqamli tahlil shuni ko‘rsatdiki, resurslardan optimal foydalanish orqali ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, hosildorlikni oshirish va foydani ko‘paytirish mumkin. Bu esa klasterlarni boshqarish samaradorligini oshirishda resurslar optimallashtirishining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot doirasida agroklaster sharoitida resurslardan foydalanish samaradorligi shartli ravishda tanlab olingan paxtag‘alla yo‘nalishidagi agroklaster misolida tahlil qilindi. Tahlilda 2021–2024-yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlar solishtirildi. Agroklaster faoliyatida resurslardan optimal foydalanish joriy etilishidan oldin va keyingi holat quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

**1-jadval**

**Agroklasterda resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2021 yil (an’anaviy)</b>	<b>2024 yil (optimallashtirilgan)</b>
1.	Ekin maydoni (ga)	5 000	5 000
2.	Umumiy xarajatlar (mlrd so‘m)	75	62
3.	1 gektarga xarajat (mln so‘m)	15,0	12,4
4.	Hosildorlik (s/ga)	45	58
5.	Yalpi mahsulot (mlrd so‘m)	90	125
6.	Foyda (mlrd so‘m)	15	63

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, resurslardan optimal foydalanish natijasida 1 gektarga to‘g‘ri keladigan xarajatlar 17,3 % ga kamaygan, hosildorlik 28,9 % ga oshgan, foyda hajmi 4 baravardan ko‘proqqa oshgan.

Bu natijalar resurslarni rejalashtirish va boshqarish samaradorligi oshganligini ko‘rsatadi. Agroklasterda mehnat resurslarini optimallashtirish doirasida mexanizatsiya darajasi oshirildi va kadrlar qayta tayyorlandi.

**Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi**

<b>№</b>	<b>Ko‘rsatkich</b>	<b>2021 yil</b>	<b>2024 yil</b>
1.	Ishchilar soni (kishi)	1 200	950
2.	1 ishchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot (mln so‘m)	75	132
3.	Mehnat unumdorligi o‘sishi	–	+76 %

Jadval natijalarga ko‘ra, mehnat resurslaridan optimal foydalanish hisobiga ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj 20,8 % ga qisqargan, mehnat unumdorligi 76 % ga oshgan.

Agroklasterda resurslarni optimallashtirish natijasida umumiy iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshgan. Quyidagi ko‘rsatkichlar buni tasdiqlaydi: tannarxning pasayishi: –18 %, rentabellik darajasi 16 % dan 51 % gacha oshgan, investitsiya qaytimi (ROI): 1,4 → 2,8

Bu holat resurslardan optimal foydalanish klaster faoliyatining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashini ko‘rsatadi. Agroklaster misolida o‘tkazilgan raqamli tahlil shuni ko‘rsatdiki, resurslardan optimal foydalanish klaster boshqaruvining eng muhim elementi hisoblanadi. Ayniqsa, moddiy va mehnat resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Olingan natijalar Porter va OECD tadqiqotlarida keltirilgan xulosalar bilan mos keladi, ya‘ni klasterlarda resurslarni birgalikda boshqarish raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, agroklaster sharoitida resurslardan optimal foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlikni ham ta‘minlaydi.

Olingan natijalar mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirilganda, klasterlarni samarali boshqarishning asosiy sharti resurslarni integratsiyalashgan holda boshqarish ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, Porter va Enright tadqiqotlarida klaster ichidagi hamkorlik va raqobat muvozanati muhim omil sifatida qayd etilgan.

Resurslardan optimal foydalanish klaster ishtirokchilarining ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, mahsulot sifati va hajmini oshiradi hamda innovatsion faoliyatni jadallashtiradi. Shu nuqtai nazardan, klaster boshqaruvida strategik rejalashtirish, raqamli monitoring tizimlari va samarali menejment usullarini joriy etish zarur. Klasterlarda resurslardan optimal foydalanish samarali boshqaruvsiz mumkin emas. Ayniqsa, resurslarni integratsiyalashgan holda boshqarish klaster samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Raqamli boshqaruv platformalari, resurslarni baholash indikatorlari va strategik rejalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ilmiy adabiyotlar tahlili bilan solishtirilganda, mazkur tadqiqot resurslardan optimal foydalanishni klaster boshqaruvining markaziy elementi sifatida asoslab beradi.

Xulosa qilib aytganda, klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshqaruv tizimini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish orqali klasterlarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Mazkur ilmiy xulosalar klaster siyosatini takomillashtirishda va amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Porter M.E. *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review, 1998.
2. Enright M.J. *Regional Clusters and Economic Development*. Economic Development Quarterly, 2003.
3. “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2019-yil 11-dekabr
4. “Paxta klasterlarining faoliyatini tartibga solish choralari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2021-yil 17-noyabr

5. “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha strategiya (2020–2030 yillar)” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 23-oktabr
6. Karimov A., Xolmatov B. *Iqtisodiy klasterlar va ularning rivojlanish mexanizmlari*. Toshkent, 2020.
7. OECD. *Innovation Clusters and Regional Development*. Paris, 2019.

**UDK: 338.48:658.01(575.1)**

**O‘ZBEKISTONDA TURISTIK MAJMUALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING  
NAZARIY JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ  
ТУРИСТИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**THEORETICAL ASPECTS OF MANAGING THE ACTIVITIES OF TOURIST  
COMPLEXES IN UZBEKISTAN**

**Xomidov Qaxxorali Qurbonali o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID - 0000-0002-5768-6010

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada postindustrial jamiyatga o‘tishdan bugungi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlar tahlili iqtisodiy tizimlarning sanoatlashgan iqtisodiyot, xizmatlar iqtisodiyoti hamda o‘zgarishlar iqtisodiyotiga o‘tib borayotgani, postindustrial jamiyat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari, N.Leyperning turizm tizimi modeli tarkibi va “Turistik majmua” tushunchasiga konseptual yondashuvlarning mazmuni hamda faoliyatini boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** postindustrial jamiyat, turizm sohasi, turistik majmua, boshqaruv yondashuvlari, turizm xizmatlari, turistik majmualar boshqaruvi, rivojlanish tendensiyalari, rivojlanish qonuniyatlari.

В данной статье анализ изменений от перехода к постиндустриальному обществу до наших дней основан на том факте, что экономические системы движутся в направлении индустриализированной экономики, экономики услуг и экономики изменений, этапов развития экономики постиндустриального общества и т.д. Структура проанализированы модель туристической системы Лейпера и содержание концептуальных подходов к понятию "туристический комплекс" и теоретико-методологические аспекты управления его деятельностью.

**Ключевые слова.** постиндустриальное общество, индустрия туризма, туристический комплекс, подходы к управлению, туристические услуги, управление туристическими комплексами, тенденции развития, законы развития.

In this article, the analysis of changes from the transition to post-industrial society to the present day is based on the fact that economic systems are moving towards an industrialized economy, the economy of services and the economy of changes, stages of development of the economy of post-industrial society, N. The structure of the model of the tourism system of leyper and the content of conceptual approaches to the concept of a "tourist complex" and theoretical-methodological aspects of the management of its activities are analyzed.

**Keywords.** post-industrial society, tourism industry, tourist complex, management approaches, tourism services, management of tourist complexes, development trends, development laws.